

**ILMIY TADQIQOTLAR
SAMMITI
2022**



ILMIY TADQIQOTLAR SAMMITI

**Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy
sammit materiallari
TO‘PLAMI**

II

**22.02.2022
TOSHKENT**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION RIVOJLANISH VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**



ILMIY TADQIQOTLAR SAMMITI

**Respublika ko'p tarmoqli ilmiy sammit
materiallari to'plami II – jildi.
(22-fevral, 2022-yil)**



TOШKEHT – 2022

Mazkur ko'p tarmoqli respublika ilmiy ishlanmalar va tadqiqotlar sammiti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ilm-fan sohalariga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 30-avgustdagi PQ-4433-son Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tomonidan masofaviy shaklda o'tkazilib, nashrga tavsiya etildi.

MAS'UL MUHARRIRLAR:

Sagdullaev Anatoliy Sagdullaevich – O'zR. Fanlar akademiyasi akademigi.
Murtazaeva Rahbar Hamidovna – tarix fanlari doktori, professor.

TAHRIR HAY'ATI:

Abdurashid Turg'unov – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Komil Ibrigimov – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Zarina Abduazimova – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
G'ulom Abdurahmonov – kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Sherali Qo'ziev – biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

TEXNIK MUHARRIRLAR:

**Gulbonu Kuvatova, Sirojiddin Saloxov, Asila O'roqova,
Shavkat Axmadov, Akmal Shukurov, Bobur Abdullaev.**

TASHKILY QO'MITA KOTIBI:

Usmanov Abdumo'min Xolmo'minovich

- **To'plamga kiritilgan ma'lumotlar uchun mualliflar mas'uldir!**

42.	<i>Bektoshev O.Q., Xasanov D.R.</i> Elektrlashgan temir yo'llarda elektr quvvati sarflanishi tahlili	161
43.	<i>Berdibayev A.</i> Informatsiyaliq jamiyette shaxs ruwxliyigini transformatsiyalarni sociomadeniy aspektler	164
44.	<i>Bexudova M.O.</i> Kanalli sistemada tarqaluvchi nurlar xossalarni o'rganish	167
45.	<i>Bekchanova F.M.</i> Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ta'lim shakllanishining xususiyatlari va shakllari	172
46.	<i>Boboxo'jayeva L. A.</i> Usmon Azim she'riyatida muhabbat mavzusining badiiy talqinida tadrijiylik	177
47.	<i>Bobojonov B.R.</i> Bino va inshootlarni qurishda innovatsion qurilish materiallaridan foydalanish	180
48.	<i>Bobomurodova D.</i> O'quvchilarning ravon o'qishiga erishish usullaridan namuna	185
49.	<i>Boboxolova Sh.A., Qo'chqorova D.Sh.</i> Shaxsda mavjud bo'lgan vahima va qo'rquvlardan xalos bo'lish usul va uslublari	188
50.	<i>Buranova S. B.</i> Pandemiyalarni o'rganishning geografik jihatlari	192
51.	<i>Buronova R.T., Toshtemirova Z.N.</i> Use of new technologies in language learning	198
52.	<i>Bo'riev B.O., Muxiddinova F.A.</i> O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabalarining psixologik va jismoniy tayyorgarligini sport yakka o'yinlari orqali shakllantirish	202
53.	<i>Dadaboyeva F.X.</i> Planning effective writing and speaking classes for esl learners	205
54.	<i>Davlatova D.Q.</i> Maksimal pro-nilpotent idealga ega bo'lgan ba'zi pro- yechiluvchan li algebralari	209
55.	<i>Dauletbaeva Z.K.</i> Qaraqalpaq xalq awizeki do'retpe si arqali oqirvsh-jaslardi ta'rbiyalawdin' a'hmiyeti	216
56.	<i>Djurayeva N.S.</i> Exokardiografik ma'lumotlarni intellektual tahlil qilishda CNN va RNN algoritmlari	219
57.	<i>Doliyeva D.A.</i> Vatan taraqqiyotiga mening hissam	221
58.	<i>Dosmaganbetov S., Yusupov O.</i> The Karakalpaks of the aral delta of amudarya	225
59.	<i>Elmurodov U.Y.</i> Boshqaruv tizimida liderlik qobiliyatining shakllanishi ijtimoiy-psixologik muammolari	230
60.	<i>Elov Z.S., Axmedova A.M.</i> Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq buzilishlari va ularni yuzaga keltiruvchi sabablarning bola ruhiyatiga psixologik ta'siri	234
61.	<i>Ergasheva D.S.</i> Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini yuksaltiruvchi omillar	238
62.	<i>Ergasheva G.O.</i> Ways to increase cognitive activity of youth	241

USMON AZIM SHE'RIYATIDA MUHABBAT MAVZUSINING BADIY TALQINIDA TADRIJIYLIK

*Boboxo'jayeva L. A.
Buxoro davlat universiteti talabasi*

Annotatsiya: Usmon Azim o'zbek she'riyatining ko'lamini kengatirib, nasriy she'rlardan barmoq vaznigacha bo'lgan turli vaznlarda ijod qilgan shaxs. O'z she'rlarida insonning davr va jamiyat hayotidagi o'rnini tushunishga, davrning og'riqli masalalariga, tashqi va ichki olam uyg'unligi munosabatlariga e'tibor qaratgan. Keyinchalik shoir ijodida voqelikni falsafiy-istoraviy obrazlar orqali va tasvir etish mahorati kuchayib borgan. Ayniqsa, insonning Yaratganga va insoniyatga, dunyoga muhabbati tasviri aks etgan misralar yetakchi.

Kalit so'zlar: Usmon Azim, "Saylanma", ijodkor uslubi, shoir, shoirlik, she'riyat, g'ussa, ruhiyat.

She'riyat – ko'ngil bog'ining chamani. She'r yozish mahorati har kimga ham berilmagan. Ko'ngillardan joy oluvchi she'rlar yozish, shaxs qalbining tub-tubiga qadar kirib boradigan darajada qalam tebratishga qodir shoirlar kam. Haqiqiy shoirning ruh va fikr maqomi o'ziga xos, doimo yuksak bo'ladi. Natijada, bunday ijodkorni xalq e'tirof etadi. Usmon Azimga Tangri tomonidan shunday qalb berilganki, u mehr-muhabbatga, sevgiga to'la. Shuning uchun uning ko'ngli erkin, ruhi va she'ri erkindir. Ijodining tili sodda va ravon. Ayniqsa, shoirning "Saylanma" sini o'qigan kitobxon uning olamiga, ruhiyatiga, ko'ngil bog'iga sayr qilgandek bo'ladi. Shu bog'larning bahoriy manzara va quvonchlaridan ruhlanadi, kuz quchog'idagi holatlariga nigoh tashlab, goh hazin, goh o'ychan, goh g'am-g'ussali xayollarga beriladi. Qanday fikr yo g'oya ilgari surilishidan qat'i nazar, she'r – holat, tug'yon va ruhiyat suratlaridir. Xususan, ijodkoming tuyg'ulari va qalb kechinmalari qorishmagan asarning kitobxon ko'nglidan o'rin olishi amri mahol. Usmon Azim ana shu haqiqatni anglagan shoirdir. Uning "Ruhga ko'chdim – tanim qolmadi", deyishi ham shundan.

Usmon Azim shoirlikni o'ziga kasb deb emas, yelkasidagi, xalqi oldidagi turgan ulkan mas'uliyat deb biladi. Uningcha, 3-4 qator she'rni vazn va qofiyaga solib, kitob chiqarish orqali e'tiborga tushish shoirlik emas. Ijodkor o'z misralari orqali barchaning quvonch va hasratini jamlay olishi kerak. O'z dardini, o'z holatinigina o'ylab she'r bitgan shoir shoir emas. Shoir bu dunyo uchun jamiki olam ahlini uyg'otishga qodir bo'lgan bir da'vat bo'lishi lozim. Shundagina, "shoir" nomini oqlagan bo'ladi.

Muhabbat – shoir va yozuvchilar ijodida yetakchi mavzu ekanligi barchamizga ma'lum. Chunki qalbida muhabbat bo'lgan shaxs Haqni taniydi, unga e'tiqod qiladi. Nafaqat Haqqa, balki Yaratuvchi yaratgan insonlarga, tabiatga, atrofda qilarga ham muhabbat bilan qaraydi. Usmon Azimning: "Sevilganning xudosi bordir, Sevilgagan xudosiz, jonim", degan misralari orqali mohiyat

anglashiladi. Oshiqlikning eng go'zali va to'g'risi – Olohgga oshiqlikdir. Ko'ngil uchun Haq ishqidan ortiq va bepoyon hurriyat yo'q. eng so'nggi najot ham insonni abadiyat saltanati – Olohg dargohiga chorlovchi shu ishqdir:

Zabt ayladi meni xayoling,
O'rtamizda qolmadi firoq.
Yuragimda, Olohg, jamoling
Barg uchganda uyg'ongan titroq...

Shoiming eng sara she'rlari jamlangan "Saylanma" to'plamida shu kabi Olohg ishq va vasfi qalamga olingan misralar ahamiyatga molik. Chunki har qanday ijodkor asarlarida tilga olinadigan voqelikdir. Bu bilan Usmon Azim faqatgina Olohgga oshiqlikni kuylagan, da'vat etgan shoir, desak mubolag'a bo'ladi. Uning yana "Saylanma" to'plamiga murojaat qilamiz. Shoirning she'riyatida lirik qahramonning real ishq tasvirlangan bo'lib, hayotdagi mahbubaning vasliga yetish mashaqqatlari hajridir. Shu tariqa, Usmon Azim ijodidagi muhabat hayotdagi hayotga muhabbat va inson sevgisi bo'lib, u orzular va samimiy hissiyot bilan ifoda etiladi. Shuni alohida qayd etish joizki, zamonaviy she'riyatda nafis ohang va tuyg'ular taassuroti boshqacha shaklda namoyon bo'lmoqda.

Suyganim yashamoq sabr-u qanoat,
Daqiqa – sinovdir, lahza – sinoat.
Ishq deb ado bo'lmoq balki saodat,
Garchi u ko'zlarni yoshlab o'tadir.

Ruh insondagi idrok qiluvchi va biluvchi latiflikdir. Usmon Azimning oldingi hamma she'riy to'plamlariga nisbatan "G'ussa" deb nomlangan majmuasida ana shu latiflikning miqyosi teranlashgan. "G'ussa" to'plamidan tanlangan she'rlar shoiming dunyoqarashida kuchli siljish sodir bo'lganligini anglashdan emas, balki uning ijodida sifat nuqtai nazaridan o'zgarish, yangilanish bo'lganligini bilish mumkin: "Shuncha go'zalmisan, shuncha sershitob. Qayerlardan kelding, jonginam g'ussa?!"

Usmon Azim she'rlarini mutolaa qilar ekanmiz, beixtiyor uning dunyosiga tushib qolamiz. Ayniqsa, muhabbat mavzusidagi she'rlar kishini o'yga toldiradi. Uning she'rlari makon va zamon tanlamaydi. Usmon Azim ijodi serqirra g'oyalarga boy. Shoirning lirik va epik she'rlari bir ummon. Ularning asos mohiyati ishq muhabbatdan iborat va biz ularning ayrim namunalari bilan tanishdik. Shoir she'rlari ko'pincha aqliy muhokamalar bilan qorishib ketgan. Bu esa jiddiylik hamda donishmandlik samarasi va atomati. Zamon bilan hamnafas shoir she'rlari mazmundor va bugungi hayot ohangini aks ettirayotgan go'zal asarlardir. Baxshiyona ohangdagi she'rlari xalqona va o'ynoqi xususiyati bilan alohida ajralib turadi. Bu xalqona va o'ynoqilik zamirida juda katta falsafiy donishmandlik va ijodiy tajriba yotadi. Shoir ko'p nasriy asarlar, jumladan, qissa, hikoyalar muallifi hamdir. Bularning hammasi Usmon Azimning ijodiy salohiyati kengligi hamda mo'lligini ko'rsatadi. Tug'ma shoir she'riyatga alanga yanglig' kirib keladi. Zamonning o'tkinchi shamollari uning qalbidagi olovni so'ndirishga

qanchalik urinmasin, iste'dod olovi yildan - yilga, davrdan - davrga yanada porlab, balqib boradi. Usmon Azim nozik hissiyot bilan yozadi, she'rni mayin navo, ta'sirchan tuyg'u va yurakdan joy oladigan muhabbat deb biladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'uxati:

1. Адабий турлар ва жанрлар (Тарихи ва назариясига оид) III жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992. – 246 б.
2. Усмон Азим "Сайланма" (шеърлар). Т.: Шарқ, 1995.- 282 б.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари.–Т.: Ўзбекистон, 2001. – 560 б.
3. Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 344 б.
4. Бугунги ўзбек адабиётининг баъзи муаммолари. 1-қисм. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2013. – 100 б.
5. Умуров Ҳ. Адабиёт қоидалари. – Т.: Ўқитувчи, 2013. – 238 б.
6. Умуров Ҳ. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – 262 б



2022 йилнинг 22 февраль куни Ўзбекистон Миллий университетида ўтказилган
“ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР САММИТИ” да фаол иштироки учун тақдирланади

Бобоҳўжаева Лазиза Ахтамовна

СЕРТИФИКАТ

Олий ва ўрта махсус
таълим вазири А.Ташкулов



Ўзбекистон Миллий университети
ректору И.Маджидов



Ёшлар ишлари агентлиги
директори А.Саъдуллаев

